



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

INGLIZ TILI DARSLARIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI ORQALI GLOBAL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Yuldasheva Ma'muraxon Boqijonovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat chet tillari instituti
E-mail: mamuraxon8588@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ingliz tili darslari orqali global fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ingliz tili o'qitish jarayoniga integratsiya qilinishi nazariy manbalar va hujjatlar tahlili asosida ko'rib chiqildi. Tahlil natijasida til rivoji, tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish va reflektiv amaliyotni uyg'unlashtiruvchi metodologik model ishlab chiqildi. Natijalar ingliz tili ta'limini BRM bilan bog'lash kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo xabardorlik hamda ijtimoiy mas'uliyatni samarali rivojlantirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, global fuqarolik kompetensiyasi, barqaror rivojlanish maqsadlari, refleksiya, kommunikativ yondashuv.

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ ГЛОБАЛЬНОГО ГРАЖДАНСТВА ЧЕРЕЗ ЦЕЛИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В КЛАССАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Юлдашева Маъмурахон Бокижоновна
Доктор философии по педагогическим наукам
Наманганский государственный институт иностранных языков
E-mail: mamuraxon8588@gmail.com

Аннотация

В статье рассматривается проблема развития глобальной гражданской компетентности через преподавание английского языка в системе высшего образования Узбекистана. В исследовании анализируется интеграция Целей устойчивого развития (ЦУР) Организации Объединённых Наций в процесс обучения английскому языку на основе изучения теоретических источников и нормативных документов. В результате анализа была разработана методологическая модель, сочетающая развитие языковых навыков, исследовательское обучение и рефлексивную практику. Полученные результаты показывают, что связывание преподавания английского языка с ЦУР способствует эффективному формированию коммуникативной компетенции, критического мышления, межкультурной осведомлённости и социальной ответственности.

Ключевые слова: английский язык, глобальная гражданская компетентность, Цели устойчивого развития, рефлексия, коммуникативный подход.

DEVELOPING GLOBAL CITIZENSHIP COMPETENCE THROUGH THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

Yuldasheva Mamurahon Bokijonovna
Namangan State Institute of Foreign Languages
E-mail: mamuraxon8588@gmail.com

Abstract

The article examines the development of global citizenship competence through English language instruction within the higher education system of Uzbekistan. The study explores the

integration of the United Nations' Sustainable Development Goals (SDGs) into the process of teaching English, based on the analysis of theoretical sources and policy documents. As a result of the analysis, a methodological model was developed that combines language development, inquiry-based learning, and reflective practice. The findings show that linking English language education with the SDGs effectively fosters communicative competence, critical thinking, intercultural awareness, and social responsibility.

Keywords: English language, global citizenship competence, Sustainable Development Goals, reflection, communicative approach.

Zamonaviy oliy ta'limdan talabalar nafaqat kasbiy bilimlarga ega bo'lishi, balki murakkab global jarayonlarni anglaydigan, ijtimoiy mas'uliyatli va faol fuqarolar sifatida shakllanishi kutiladi. XXI asrda bilimlar oqimi tezkor, jamiyatlar o'zaro bog'langan va iqtisodiy hamda madaniy munosabatlar tobora globallashtirib bormoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalari faqat mutaxassis tayyorlash bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning fuqarolik pozitsiyasi, tanqidiy tafakkuri va ijtimoiy faolligini rivojlantirish vazifasini ham bajarishi zarur bo'lib bormoqda [14:14–15].

Ingliz tili bugungi kunda axborot almashinuvi, ilmiy hamkorlik, xalqaro muloqot va innovatsion g'oyalarga kirishning muhim vositasiga aylandi. Talabalar ingliz tilida ilmiy maqolalar, xalqaro ma'ruzalar va tahliliy materiallar bilan ishlash orqali nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki dunyo miqyosidagi muammolarni kengroq kontekstda ko'ra boshlaydi. Shu sababli ingliz tilini faqat grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki shaxsning dunyoqarashini kengaytiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi va ijtimoiy yetuklikni shakllantiruvchi pedagogik jarayon sifatida talqin etish muhimdir [14:14–15].

Global fuqarolik kompetensiyasi aynan mana shu jarayonda markaziy tushunchaga aylanadi. Mazkur kompetensiya talabaning global muammolarni tushunish, turli madaniyatlarni hurmat qilish, axborotni tanqidiy baholash, stereotip va noto'g'ri qarashlarni ajratib olish, o'z pozitsiyasini asosli tarzda ifoda etish hamda jamiyat hayotida mas'uliyat bilan ishtirok etish qobiliyatlarini qamrab oladi [11:18–20]. Global kompetensiyaga ega shaxs jamiyatdagi o'z roli va mas'uliyatini anglaydi, qaror qabul qilishda nafaqat shaxsiy manfaat, balki umumiy ijtimoiy manfaatni ham hisobga oladi.

BMT tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ushbu jarayon uchun metodologik va konseptual asos yaratadi. BRM ta'limni ijtimoiy adolat, tinchlik, ekologik barqarorlik, iqtisodiy farovonlik va insonparvarlik qadriyatlarini bilan bog'lab talqin etadi. Bu maqsadlar ta'limni tor akademik doiradan chiqarib, uni jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida ko'rsatadi [2:21–22]. Ingliz tili darslarida BRMdan foydalanish esa talabalarga global muammolarni tahlil qilish, faktlarni solishtirish, munozara yuritish va mantiqiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

O'zbekiston ta'lim siyosatida ham so'nggi yillarda til o'qitishni modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va talabalarning global raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili darslarida BRMni integratsiya qilish nafaqat lingvistik maqsadlarni, balki tarbiyaviy va ijtimoiy-ma'naviy maqsadlarni ham amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon nazariy jihatdan asoslangan, metodologik jihatdan puxta ishlab chiqilgan va amaliyotda tizimli qo'llanilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi. Shuning uchun ingliz tili ta'limida BRM asosidagi yondashuvni chuqur o'rganish ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot sifat jihatdan tahliliy yondashuv asosida olib borildi, chunki asosiy maqsad ma'lum bir hodisani statistik raqamlar orqali o'lchashdan ko'ra, ingliz tili ta'limida Barqaror rivojlanish maqsadlarini integratsiya qilishning nazariy va metodik asoslarini chuqur anglashdan iborat bo'ldi. Sifatli tadqiqot modeli muammoga kontekstual, tizimli va izchil yondashish imkonini beradi, shuningdek, pedagogik jarayonning yashirin, ko'pincha miqdoriy o'lchov bilan ifodalanmaydigan jihatlarini ochib berishga yordam beradi [4:161–162].

Tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar, ta'lim siyosati bo'yicha hisobotlar hamda ingliz tili metodikasi sohasidagi nazariy ishlanmalar tahlil qilindi. Ayniqsa UNESCO, OECD va BMT hujjatlarida global fuqarolik va barqaror rivojlanish ta'limining mazmuni hamda vazifalari bo'yicha ilgari surilgan yondashuvlar alohida ko'rib chiqildi [2:21–22]. Shu bilan birga, ingliz tilini kommunikativ yondashuv asosida o'qitishga oid ilmiy qarashlar pedagogik modelni shakllantirishda muhim metodologik tayanch vazifasini bajardi [13:46–48].

Metodologiya doirasida mazmuniy tahlil (content analysis) usuli qo'llanildi. Manbalar uch asosiy yo'nalish bo'yicha guruhlandi: birinchisi global fuqarolik kompetensiyasining mazmuni va tuzilishi, ikkinchisi BRMning ta'lim jarayoniga singdirilishi bilan bog'liq nazariy yondashuvlar, uchinchi ingliz tili darslari uchun samarali metodik strategiyalar. Ushbu tasnif tadqiqotning mantiqiy izchilligini ta'minlab, alohida ko'rinadigan ilmiy g'oyalarni yagona tizim doirasida birlashtirish imkonini berdi [11:18–20].

O'zbekiston olimlarining ta'lim modernizatsiyasi, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'yicha ishlari ham alohida tahlil qilindi. Mahalliy ilmiy tajriba xalqaro g'oyalar bilan taqqoslandi, umumiy jihatlar hamda milliy xususiyatlar aniqlanib, ingliz tili darslarida BRMni joriy qilish uchun moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqildi [10:73–74]. Bunday yondashuv tadqiqot natijalarining O'zbekiston oliy ta'limi sharoitiga mos va amaliy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minladi.

Tadqiqot natijalarini shakllantirish jarayonida konseptual sintez usuli qo'llandi. Turli manbalardan olingan ilmiy qarashlar solishtirildi, muvofiqlashtirildi va yagona metodik model ko'rinishida umumlashtirildi. Bu usul alohida elementlarni mexanik birlashtirish emas, balki ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda yangi ilmiy tushunchalar tizimini yaratishga xizmat qildi [4:162–163].

Shu boisdan mazkur tadqiqot empirik tajriba yoki eksperimental sinovlarga tayanmaydi. Buning o'rniga, u nazariy dalillar, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari va xalqaro me'yoriy hujjatlar tahliliga asoslanadi. Tadqiqotning qiymati aynan ingliz tili ta'limi, global fuqarolik va BRM o'rtasidagi metodologik bog'lanishlarni aniqlashda, amaliyot uchun aniq ilmiy asoslangan yo'nalishlarni belgilab berishda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, maqola keyingi bosqichlarda o'tkaziladigan amaliy tajribalar uchun nazariy poydevor yaratadi va eksperimental tadqiqotlar uchun boshlang'ich konseptual asos bo'lib xizmat qiladi [14:14–15].

Natijada, ishlab chiqilgan metodologiya ingliz tili darslarida BRMga asoslangan yondashuvni tizimli tahlil qilish, mavjud imkoniyat va cheklovlarni aniqlash hamda ta'lim amaliyoti uchun mos bo'lgan metodik modelni taklif etish imkonini berdi. Bu yondashuv ilmiy aniqlikni saqlagan holda, amaliyotga yo'naltirilgan pedagogik qarashlarni shakllantirishga xizmat qildi.

Tahlil natijalari ingliz tili ta'limi va global fuqarolik kompetensiyasi o'rtasida chuqur metodologik uyg'unlik mavjudligini ko'rsatdi. Avvalo, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar til materialini faqat grammatik mashqlar darajasida emas, balki mazmunli muloqot vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi. Bunday darslarda talaba turli ijtimoiy, madaniy va global mavzular yuzasidan fikr bildiradi, dalillarni taqqoslaydi, savol beradi, bahs yuritadi va xulosa chiqaradi. Natijada til o'rganish jarayoni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashadi va shaxsning ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish bilan bog'lanadi [13:46–48].

Tahlil shuni ko'rsatdiki, ingliz tili darslariga Barqaror rivojlanish maqsadlari mazmunini kiritish talabalarining bilim doirasini kengaytiradi, ularni global muammolarni chuqurroq anglashga undaydi. Masalan, iqlim o'zgarishi, ijtimoiy tengsizlik, barqaror iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, tinchlik va adolat kabi mavzular bilan ishlash jarayonida talabalar faktlar ustida ishlashni, dalillarni tekshirishni va xulosalarni asoslashni o'rganadi. Bunday yondashuv tilni o'zlashtirishni ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'laydi va talabaning fuqarolik ongini mustahkamlaydi [5:87–88].

Natijalar, shuningdek, ingliz tili ta'limining mazmuni kengaygan sari talabalarda

madaniyatlararo sezgirlik va tolerantlik darajasi ham ortishini ko'rsatdi. Turli mamlakatlar tajribasi, an'analari va ijtimoiy muammolari muhokama qilinganda, talabalar turlicha qarashlarni qabul qilish, o'z stereotiplarini qayta ko'rib chiqish va boshqa madaniyatlarni hurmat qilish zarurligini anglay boshlaydi. Bu jarayon global fuqarolik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sanaladi [11:18–20].

Fanlararo integratsiya natijalarning yana bir muhim jihatini tashkil etdi. Ingliz tili darslari ekologiya, iqtisodiyot, tarix, sotsiologiya va siyosatshunoslik bilan bog'langan holda tashkil etilganda, talabalarda bilimlar fragmentar emas, balki tizimli ko'rinishda shakllandi. Bu esa ularning muammolarni bir nechta nuqtai nazardan baholashiga, sabab-oqibat bog'lanishlarini ko'ra olishiga va murakkab vaziyatlarda asosli qarorlar chiqarishiga yordam berdi [7:33–34].

O'zbekiston olimlarining ishlari bilan solishtirish ham muhim natijalarni berdi. Mahalliy tadqiqotlar pedagogik texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu qarashlar BRMga asoslangan ingliz tili ta'limi bilan uyg'unlashib, milliy ta'lim tizimida global kompetensiyalarni shakllantirish uchun mustahkam metodik poydevor yaratadi [10:73–74].

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tili darslarini BRM bilan boyitish til ko'nikmalarini o'rgatishdan tashqari, talabaning dunyoqarashini, ijtimoiy faolligini va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv ingliz tilini "fan sifatida" emas, balki "hayotiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi vosita" sifatida talqin etishga imkon beradi [3:19–20]. Tahlildan ma'lum bo'ldiki, mazkur integratsiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining metodik tayyorgarligi, darslik va resurslarning sifatiga hamda baholash tizimining moslashuvchanligiga bog'liq. Agar baholash faqat grammatik to'g'rilikka yo'naltirilsa, talabalar mazmunli muloqotdan ko'ra, test natijasiga ko'proq e'tibor qaratadi. Shu bois BRMga asoslangan darslarda baholash tizimi nutq faoliyati, tahlil, munozara yuritish va refleksiyaning ham qamrab olishi zarur [1:35–36].

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil ingliz tili ta'limi global fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali maydon ekanini tasdiqlaydi. BRMga asoslangan yondashuv talabaning bilimini, qadriyatlarini va ijtimoiy pozitsiyasini uyg'un holda shakllantiradi hamda uni zamonaviy jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zosi sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Olingan natijalar ingliz tili ta'limini Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan integratsiya qilish, nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirish, balki talabalarning global fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda ham katta imkoniyatlar yaratishini ko'rsatdi. Bu yondashuv ingliz tilini o'qitishning an'anaviy maqsadlarini kengaytirib, uni ijtimoiy ong, mas'uliyat va axloqiy pozitsiyani tarbiyalash vositasiga aylantiradi. Til ta'limining mazkur funksional o'zgarishi zamonaviy oliy ta'lim oldida turgan global chaqiriqlar bilan bevosita bog'liqdir [13:46–48].

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, BRMga asoslangan darslar talabalarda mustaqil fikrlash, dalillarga tayanib xulosa chiqarish va o'z pozitsiyasini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Global muammolar bilan ishlash jarayonida talaba faqat tayyor ma'lumotni qabul qilmaydi, balki ularni tahlil qiladi, turli manbalar o'rtasida solishtirish olib boradi va o'z fikrini izchil bayon etishga intiladi. Bunday faol o'quv pozitsiyasi kommunikativ yondashuvning mazmuni bilan uyg'unlashib, ingliz tili darslarini interaktiv, maqsadga yo'naltirilgan va mazmunan boy jarayonga aylantiradi [5:87–88]. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari mazkur integratsiya jarayoni muayyan cheklovlar va qiyinchiliklarni ham yuzaga chiqarishini ko'rsatdi. Avvalo, o'qituvchilarning barchasi ham global fuqarolik, BRM va ularni lingvodidaktik jarayonga moslashtirish bo'yicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega emas. Ko'plab o'qituvchilar dars mazmunini kengaytirish zaruratini his qilsa ham, amalda uni qanday tashkil etishni aniq tasavvur qilmaydi. Bu esa integratsiya yuzaki, epizodik hamda faqat mavzular darajasida amalga oshirilishiga olib kelishi mumkin [1:35–36].

Ikkinchi muammo baholash tizimi bilan bog'liq. Agar baholash faqat grammatik to'g'rilik, leksik birliklarni eslab qolish yoki test natijalariga yo'naltirilgan bo'lsa, talabalar diqqatini mazmunli tahlildan ko'ra, ball yig'ish jarayoniga qaratib qo'yadi. Holbuki, BRMga asoslangan darslar tanqidiy fikrlash, muloqot, bahs-munozara va refleksiya ham qamrab

oladi. Shu sababli baholash mezonlari ham yangilanishi, nutq faoliyati, pozitsiya ifodasi, dalillash sifati va ijtimoiy mazmunni tushunish darajasi inobatga olinishi zarur [3:19–20]. Muhokamaga ko'ra, milliy kontekst bu jarayonda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston ta'lim tizimida an'anaviy yondashuvlar hali ham sezilarli darajada saqlanib qolgan. Shu bois BRMga asoslangan ingliz tili darslarini joriy qilishda xalqaro tajribani mexanik tarzda ko'chirish emas, balki uni milliy ehtiyoj, mentalitet va ta'lim tizimi xususiyatlariga moslashtirish zarur. Mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, tarbiyaviy komponentni kuchaytirish va fuqarolik qadriyatlarini shakllantirishga oid g'oyalar aynan shu nuqtada muhim metodik tayanch vazifasini bajaradi [10:73–74].

Muhokama shuni tasdiqlaydiki, ingliz tili darslarida BRMni integratsiya qilish faqat mazmuniy kengayish emas, balki pedagogik falsafaning o'zgarishini ham talab qiladi. O'qituvchi bilim beruvchi sub'ektgina emas, balki talabaning mustaqil fikrlashini rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi va muhokama tashkilotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Talaba esa passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi, muloqot ishtirokchisi va ijtimoiy mas'uliyatni anglaydigan shaxsga aylanishi lozim [11:18–20].

Shu tariqa, muhokama natijalari ingliz tili ta'limida BRMga asoslangan yondashuvni joriy qilish ilmiy asoslangan, ammo ehtiyotkorlik bilan rejalashtirilishi lozim bo'lgan murakkab didaktik jarayon ekanini ko'rsatadi. U bosqichma-bosqich amalga oshirilganda, o'qituvchilarning malakasi muntazam oshirib borilganda va baholash tizimi moslashtirilganda, mazkur yondashuv talabalarning global fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaraga erishishi mumkin.

O'tkazilgan tahlil va muhokamalar ingliz tili ta'limida Barqaror rivojlanish maqsadlarini integratsiya qilish nazariy va amaliy jihatdan muhim, istiqbolli yo'nalish ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ingliz tili darslari faqat lingvistik bilimlarni egallash maydoni emas, balki talabaning global dunyoni anglash, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun samarali pedagogik muhit yaratadi [13:46–48].

BRMga asoslangan yondashuv talabalarning til ko'nikmalarini real hayotiy kontekstlar bilan bog'laydi, ularni global muammolarni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, o'z fikrini asoslash va muhokama jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Natijada til o'rganish jarayoni ma'no va qadriyatlar bilan boyiydi, ta'lim shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy ong bilan uzviy bog'lanadi [5:87–88].

Xulosa qilish mumkinki, ingliz tili ta'limi global fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunda talabaning madaniyatlararo muloqotga ochiqqligi, turli qarashlarni hurmat qilish, tanqidiy fikrlash va axborotni mas'uliyat bilan qo'llash ko'nikmalari bosqichma-bosqich rivojlanadi. Bu jarayon zamonaviy oliy ta'limning maqsadlari bilan to'liq uyg'unlashadi va talabaning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, uning insoniy va fuqarolik sifatlarini ham mustahkamlaydi [11:18–20].

Shu bilan birga, BRMga asoslangan yondashuvni joriy etish o'qituvchidan yangi pedagogik rolni, metodik resurslarni yangilashni va baholash tizimini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Mazkur jarayon bosqichma-bosqich tashkil qilinib, malaka oshirish, metodik qo'llanmalar yaratish va tajriba almashish tizimi bilan qo'llab-quvvatlangandagina barqaror natija beradi [1:35–36].

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u ingliz tili ta'limi, barqaror rivojlanish va global fuqarolik o'rtasidagi metodologik bog'liqlikni ochib beradi va amaliyot uchun nazariy asos taklif etadi. Amaliy ahamiyati esa ingliz tili darslarini mazmunan boyitish,

talabaning ijtimoiy faolligini oshirish va uni zamonaviy global jamiyatning mas'uliyatli a'zosi sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqilganida namoyon bo'ladi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda eksperimental, empirik tadqiqotlarni amalga oshirish, turli ta'lim muassasalarida BRMga asoslangan dars modellarini sinovdan o'tkazish hamda ularning samaradorligini baholash maqsadga muvofiqdir. Bunday izlanishlar natijalari ingliz tili ta'limining mazmuni va metodikasini yanada takomillashtirish, global fuqarolikni rivojlantirish bo'yicha yangi ilmiy-amaliy yondashuvlarni shakllantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaeva D. Til o'rganishda madaniyatlararo muloqot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Andreotti V. Soft versus Critical Global Citizenship Education. — London: Development Education Research Centre, 2014.
3. Beane J. Curriculum Integration: Designing the Core of Democratic Education. — New York: Teachers College Press, 1997.
4. Boell S., Cecez-Kecmanovic D. On Being "Systematic" in Literature Reviews // Journal of Information Technology. — 2015. — №30(2). — B. 161–173.
5. Brown D. H. Principles of Language Learning and Teaching. — 6th ed. — New York: Pearson Education, 2016.
6. Bruner J. The Culture of Education. — Cambridge: Harvard University Press, 1996.
7. Byram M. From Foreign Language Education to Education for Intercultural Citizenship. — Clevedon: Multilingual Matters, 2008.
8. Dewey J. Experience and Education. — New York: Macmillan Publishing, 1938.
9. Mezirow J. Learning as Transformation: Critical Perspectives on a Theory in Progress. — San Francisco: Jossey-Bass, 2000.
10. Mirzaahmedov B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Innovatsiya, 2020.
11. OECD. Global Competency for an Inclusive World. — Paris: OECD Publishing, 2018.
12. Qodirov A. Barqaror rivojlanish va ta'lim: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022.
13. Richards J. C. Approaches and Methods in Language Teaching. — 3rd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
14. UNESCO. Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the 21st Century. — Paris: UNESCO Publishing, 2015.
15. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. — New York: UN, 2015.